

OILAVIY MUNOSABATLARDA AJRALISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Kuchkarova Fazilat Xankeldiyevna

Samarqand Zarmed universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, dotsent

Ibraximova Shaxnoza, Namazova Sevinch

Samarqand Zarmed universiteti talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqola oilaviy munosabatlarda ajralish muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada ajralishlarning asosiy sabablariga, jumladan, kommunikatsiya muammolari, moliyaviy qiyinchiliklar, ruhiy salomatlik va ijtimoiy bosimlar ta’siriga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, ajralishlarning bolalar tarbiyasiga salbiy ta’siri ham tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: oilaviy munosabatlar, ajralishlar, oila, kommunikatsiya muammolari, ruhiy salomatlik, moliyaviy qiyinchiliklar, ijtimoiy bosim.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению проблемы развода в семейных отношениях. В статье рассматриваются основные причины разводов, включая проблемы общения, финансовые трудности, психическое здоровье и влияние социального фактора. Также анализируется негативное влияние развода на воспитание детей.

Ключевые слова: семейные отношения, развод, семья, проблемы коммуникации, психологическое здоровье, финансовые трудности, влияние общности.

Abstract. This article is devoted to the study of the problem of divorce in family relationships. The article examines the main reasons for divorce, including communication problems, financial difficulties, mental health and the influence of social factors. It also analyzes the negative impact of divorce on the upbringing of children.

Key words: family relationships, divorce, family, communication problems, psychological health, financial difficulties, social pressure.

O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlashga qaratilgan bir qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilingan bo‘lsa-da, oilaviy munosabatlardagi o‘zgarishlar, ajralishlar va ularning ijtimoiy-psixologik oqibatlari hali ham dolzarb muammolar sifatida qolmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida O‘zbek oilalarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Ayollarning oila va jamiyatdagi roli tubdan o‘zgardi. Bu o‘zgarishlar oilaviy munosabatlarda haqiqiy "inqilob"ni yuzaga keltirdi va yangi oila-nikoh munosabatlari shakllanishiga olib keldi. Biroq, ajralishlar va oilaviy nizolar soni ortib bormoqda, bu esa oilaviy muammolarni yanada kuchaytirmoqda. Oila-nikoh munosabatlari yurtimizda zardushtiyarning bundan qariyb uch ming yil muqaddam yaratilgan diniy kitobi – “Avesto”da ham o‘z aksini topganligini alohida ta’kidlash lozim.

“Avesto”da oilaga jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida katta ahamiyat berilgan, jamiyatning mavjudligi va farovonligi, ijtimoiy aloqalarning mustahkamlanishi, yomonlikka qarshi kurash, inson zotining davom etishi, “Avesto” jamiyatining yashovchanligi, dinning vorisligi va tarqalishi jamiyat mustahkamligiga bog‘liq ekanligi keltiriladi. Shuning uchun nikoh Oliy tangri Ahura Mazdaga xush kelishi, nikohsizlik esa gunoh, yomonlik ekanligi ta’kidlanadi. Zardushtiylik qo‘ydi-chiqdini, ya’ni taloq qilishni qat’iyan taqiqlagan, er-xotin sadoqatini targ‘ib etgan, buzqlikni, zinokor xotinlar turmush tarzini la’natlagan.

Ajralishlar, o‘z navbatida, ruhiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. O‘zbek oilalarida ajralishlar soni ortishi, ruhiy salomatlik, asab kasalliklari va jinoiy harakatlar kabi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Ajralishlar, shuningdek, bolalar tarbiyasida muammolarni keltirib chiqaradi, bu esa kelajak avlodning ruhiy salomatligiga ta’sir qiladi.

Oila a’zolari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, ko‘pincha, ota-onalarning o‘zaro munosabatlari, moliyaviy muammolar va ijtimoiy bosimlar bilan bog‘liq. Bu kelishmovchiliklar, o‘z navbatida, ajralishlarga olib kelishi mumkin. O‘zbek oilalarida ajralishlar, ko‘pincha, yosh juftliklar orasida ko‘proq uchraydi, bu esa ularning ijtimoiy-psixologik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbek oilasining psixologik jihatlari nisbatan kam o‘rganilgan. Oila-nikoh munosabatlari, ajralish psixologiyasi va oilaviy hayot psixologiyasi masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar zarur. O‘zbekistonda oilaviy muammolarni o‘rganish uchun psixologik, sotsiologik va huquqiy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ajralish oqibatlari er-xotinlarning xarakterini, ruhiy emotsional kechinmalarini to‘kis anglamasligi yoki bir-birining haq-huquqlarini poymol qilishi natijasida kelib chiqadi.

Shariat qonunlari o‘zi belgilab bergan shart-sharoitlarga, insonning o‘z e‘tiqodiga qat’iy rioya etishini talab qilgan. Bunday ta’limotlarning asrlar mobaynida hukmronlik qilishi odamlarda oila-nikoh munosabatlariga, oilaviy hayotda sodir bo‘ladigan hodisalarga nisbatan shunday tayyorgarlikni shakllantirganki, bunga ko‘ra odamlar o‘zlarining oilaviy hayotlarida nimalar ro‘y berishidan qat’i nazar, ularni tabiiy bir hol deb, taqdir (peshonaga yozilgani) deb qabul qilgan va ko‘nikkan. Bu esa, o‘z-o‘zidan, islomga e‘tiqod qiluvchi xalqlarda, jumladan, o‘zbeklarda ham, oila-nikoh munosabatlarini, ijtimoiy-psixologiya xususiyatlarni maxsus ilmiy o‘rganish lozimligiga zarurat tug‘dirmagan.

O‘z navbatida psixologlar oilaviy ajralishlarning sabablariga ko‘ra yarashtiruv yoki oila muammolarini oldini olishda ishtirok etadigan mutaxassis vakillari sifatida o‘z munosabatlarini bildirganlar. Mutaxassislarning oilaviy ajralishlarning asosiy sabablari sifatida navbatdagi holat kuzatildi: oilaviy munosabatlardagi qadriyatlarining o‘zgarib borayotganligi, er-xotinlarning oilaviy rollaridagi nomutanosiblik, oiladagi nizolarning ko‘payayotganligi, oiladan er yoki ayolning migrant sifatida ishlashga ketayotganligi, oilada ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning kuchayayotganligi, yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, oilaning moddiy ta‘minotidagi yetishmovchiliklar, oilaviy munosabatlarda g‘arb madaniyatiga xos munosabatlarning kirib kelayotganligi, oilaviy ajralishning oddiy holatga aylanib qolayotganligi. Ko‘pgina manbalarda, ajralish erkaklarga nisbatan ayollarda murakkab ma’naviy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi, deb kelinar edi. Keyingi 10-15 yil ichida oila muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot obyekti sifatida erkaklar o‘rganila boshladi.

Bunday tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, ayollar oilaning buzilishidan ko‘proq aziyat cheksalar-da, ammo yolg‘iz yashashga tezda ko‘nikib ketadi, erkaklarda esa moslashuv jarayoni cho‘zilishi, ba‘zan doimiy xususiyat kasb etishi mumkin. Bundan tashqari, g‘arb madaniyatidagi stereotip tushunchalarga ko‘ra, erkaklar omadsiz bo‘lmasligi kerak, deb hisoblanib, oilaning buzilishiga ijtimoiy hodisa deb emas, balki jiddiy shaxsiy fojia sifatida qaralgan. O‘z-o‘zidan ravshanki, bunday omillar yig‘indisi natijasida yangi hayotga ruhiy moslashish uchun qulay imkoniyatlar yuzaga kelishiga qaramasdan, erkaklarda ruhiy holatni muvozanatga keltirish juda og‘ir kechadi. AQSh, G‘arb mamlakatlari, Rossiya va boshqa davlatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, ko‘pgina hollarda kasallanish va o‘lim holatlari oila-nikoh munosabatlaridagi nizolar bilan bog‘liqdir.

Amerikalik sotsiolog olimlar D.Karter va L.Klikning ma’lumot berishicha,

kasalxonalarda oilali erkaklarga nisbatan o‘n barobar ko‘p oilasidan ajralgan erkaklar davolangan bo‘lsa, o‘lim ham uylanmagan yigitlar orasida uch barobar ko‘p uchrar ekan, ayollar o‘rtasida bu farq ikki barobarga tengligi aniqlangan. Ajrashgan erkaklarda ko‘p hollarda moddiy ahvol o‘zgarishsiz qolsa, ayollarda ajralish, ko‘pincha, moddiy inqirozga olib keladi. Ko‘pgina davlatlarda sobiq erlar xotiniga muntazam aliment to‘lab borsa-da, lekin bu ularning iqtisodiy inqirozdan chiqib ketishiga kafolat bo‘la olmaydi. Shu sabab ayollar uchun moddiy qiyinchilikdan chiqishning birdan bir yo‘li yaxshi daromad oladigan ish joyini izlashdan iborat bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbek oilasida yuzaga kelayotgan muammolar, ajralishlar va ularning oqibatlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan dolzarb masalalardir. Oila institutini mustahkamlash va oilaviy munosabatlarni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Oila a‘zolari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish, ajralishlarning oldini olish va bolalar tarbiyasiga e‘tibor qaratish, kelajak avlodning ruhiy salomatligini ta‘minlashda muhimdir.

Oila-nikoh munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlash, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramova F.A. O‘zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari: Psixologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent., TDPY-2022. -67 b.
2. Davletshin M.G., Shoumarov G‘.B. Zamonaviy o‘zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari. /O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma‘ruzalarining qisqacha bayoni. -Toshkent, 1993.
3. Davletshin M.G. Oiladagi nizolar psixologiyasi va uning bartaraf etish yo‘llari. /O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma‘ruzalarining qisqacha bayoni.-Toshkent, 1993.
4. Shoumarov G‘. B. Muhabbat va oila. -Toshkent: Ibn Sino, 1994